

SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Hojiqurbonov Qobiljon Turdaliyevich,

Farg'ona soliq texnikumi o'qituvchisi,

e-mail: khodjiqurbonov@mail.ru, +998 95-009-10-78.

Annotatsiya. Soliq xizmatlarini yuzma-yuz rejimdan masofaviy formatga o'tkazishning asosiy muammolari ko'rib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish doirasida qo'llaniladigan soliq ma'muriyatining vositalari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida soliq ma'muriyatini takomillashtirish oqibatlari aniqlanadi va asoslanadi.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyati, raqamli transformatsiya, soliqlar, avtomatlashtirilgan axborot tizimi, elektron xizmatlar.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda axborot texnologiyalariga asoslangan raqamli jamiyatni shakllantirish jarayoni doimiy ravishda tezlashib bormoqda. Nazorat tadbirlarining texnologik jarayoniga IT-texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish davlat nazorat organlarining fiskal funksiyasini takomillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan raqamli xizmatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Birgina misol 2023-yil yanvar-aprel oylarida Soliq mobil ilovasida keshbek summasi 466,3 mlrd so'm bo'lgan 168,6 mln dona xarid cheki, shundan aprel oyida keshbek summasi 122,6 mlrd so'm bo'lgan 45,4 mln dona xarid cheki ro'yxatdan o'tkazilgan [3].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki respublikamiz rahbariyati tomonidan elektron soliq xizmatlari integratsiyasining masalasi katta e'tibor berilmoqda, buning isboti sifatida 2023-yil 24-may kuni mamlakatimiz Prezidenti tomonidan imzolangan "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli Qarorni aytish mumkin [1].

Mazkur hujjatga muvofiq bir qator davlat xizmatlarini takomillashtirish, davlat axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish nazarda tutilmoqda.

Xususan, 2024-yil mart oyida – sinov tarzida "Elektron retsept" hamda "Asl belgisi" raqamli markirovkalar tizimlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek:

2023-yil iyul oyida – my.gov.uz va license.gov.uz portallarida Onlayn-NKMLarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish;

2023-yil oktyabr oyida –

– “my.gov.uz” portali orqali jismoniy shaxslarning ortiqcha to‘langan soliqlarini qaytarishga (nodavlat MTTlarga to‘lanadigan to‘lovlar, o‘qish uchun to‘langan kontrakt summalarini, olingan ipoteka kreditlari) ariza yuborish;

– my.gov.uz va dxa.gov.uz portallarida ko‘chmas mulkni va ochiq yer maydonini ijaraga berish shartnomalarini hisobga qo‘yish;

2023-yil dekabr oyida –

– my.gov.uz va my.soliq.uz portali orqali soliq deklaratsiyalarini (yillik, ixtiyoriy, dastlabki, chet el jismoniy shaxslarining mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar) taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, Soliq qo‘mitasining tegishli axborot tizimlari orqali:

– Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Geoaxborot” axborot tizimiga qishloq xo‘jaligi sohasida iste‘mol narxlari indeksi ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan narx ma‘lumotlari (2023-yil dekabr);

– “Raqamli geoportal” hamda “Xalq nazorati” platformalari doirasida yuridik shaxs va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar, ular tomonidan to‘langan soliqlar hamda mavjud soliq qarzi, onlayn-NKM hamda ko‘chmas mulk ijara shartnoma ma‘lumotlarini axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilgan holda taqdim etish (2024-yil mart-aprel) belgilanmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi ta‘kidlaganidek “Yurtimiz “Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor” [2] ushbu so‘zlar yurtboshimiz tomonidan raqamlashtirish muammolar va istiqbollarga naqadar katta e‘tibor berilayotganini isboti hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda bugungi kunda soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning raqamli konsepsiyasining asosi shakllantirish, zamonaviy soliq ma‘murchiligini IT texnologiyalardan foydalanish

hamda uning afzalliklarini baholashga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayoni dolzarbdir. Shu bilan birga, samarali soliq ma'muriyati va nazorati minimal ma'muriy xarajatlar bilan soliq to'lovlarining maksimal miqdorini yig'ishni o'z ichiga oladi.

Soliq nazoratini avtomatlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ulkan ishlar bilan birgalikda quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- ko'pincha yuqoridagi mahsulotlar to'liq ishlab chiqilmagan va ekspert baholashdan o'tmagan. Masalan, Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogida (MXIK) deyarli 88 ming mahsulot va xizmatlar ro'yxatga olingan. Shu bilan birga, tadbirkorlar ko'plab xatolarni aniqladilar – bitta mahsulot uchun turli xil kodlar, grammatik xatolar, tovarlarni noo'rin toifalarda namoyish yetish. Ammo eng muhimi shundaki, ishlab chiquvchilar tovarlar soni 1 million donadan ortiq bo'lishi mumkinligini tan olishdi, shuning uchun kodlarni shakllantirishda muvaffaqiyatsizliklar mavjud edi;

- tizimlar amalga oshirildi, ammo ularni amalga oshirish samarasi har doim ham samarali bo'lmadi. Masalan, markalash tizimi 2020-yilda alkogol va tamaki mahsulotlarini qonuniylashtirish uchun joriy qilingan. 2021-yil natijalari o'sishni va shunga mos ravishda ushbu mahsulotlarni qonuniylashtirishni ko'rsatmadi;

- 2020-2021-yillarda elektron mahsulotlarni joriy qildi, ammo soliq to'lovchilar orasida sinovdan o'tkazilmadi, soliq to'lovchilarning ko'plab shikoyatlariga olib keldi.

Ishlab chiquvchilarni tizimlarni joriy etish vaqtini o'zgartirishga, soliq to'lovchilar tomonidan ushbu tizimlarning talablariga rioya qilinmagan taqdirda jarimalarni bekor qilish yoki keyinga qoldirishga, ularni qayta ko'rib chiqishga, soliq to'lovchilar o'rtasida sinovdan o'tkazishga olib keldi. Ushbu tizimlarni amalga oshirishda shoshqaloqlik ularning samaradorligiga va soliq ma'muriyatining umumiy tizimiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning ijobiy tomonlari ishga kiritilishi bilan soliq organlari va soliq to'lovchilar duch keladigan salbiy jihatlar, soliq xavflarining yangi turlari ham mavjud.

Yurtimizning biznes jarayonlari va soliq menejmenti tizimlariga yangi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi soliq bazasini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi byudjetining daromadlarini oshirish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Bir tomondan, soliq nazorati kuchaytirilmoqda, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq xavflarning yangi turlari, ayniqsa soliq organlari tomonidan paydo bo'lmoqda.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda quyidagilar zarur:

- korrupsiyaga qarshi qonunda aniq belgilangan jazo choralari, masalan, qamoq, mol-mulkni musodara qilish va boshqalar orqali kurashish;

- qonunbuzarlarga qarshi sanksiyalarning aniq tizimini yaratish uchun soliq tizimini isloh qilishni davom ettirish kerak;
- soliq organlari vakillari doimiy ravishda soliq to'lovchilarni o'qitib, ularni qiziqtirgan masalalar bo'yicha maslahat berishlari lozim;
- jismoniy shaxsning asosiy ehtiyojlariga javob beradigan iste'mol savati qiymatini to'liq aniqlash orqali yashash minimumini oshirishda taqdim etiladigan soliq imtiyozlari shartlari va miqdorini qayta ko'rib chiqish;
 - soddalashtirilgan soliq hisobi va hisoboti;
 - yosh avlodni tarbiyalash orqali soliq madaniyatini oshirish.

Yuqoridagilarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va biznes vakillari bilan hali ham ko'plab tortishuvlar va hal qilinmagan muammolar mavjud. Shuning uchun soliq yig'ish va boshqarish mexanizmlarini shakllantirishda tajribani, shuningdek boshqa mamlakatlarning tajribasini va yutuqlarini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 24.05.2023 yildagi PQ-162-son.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. <https://www.soliq.uz> — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.